

O'ZBEK MULTIPLIKATSION FILMLARINI TARG'IB QILISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Haydarova Sevara Tohirjon qizi¹, O.S.Kasimov²

¹ K. Behzod nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti 1-bosqich magistranti email:
sevaratohirjanovna@gmail.com

² K. Behzod nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti "Dizayn" kafedrasi dotsenti, s.f.f.d
email: oybekgulmira@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6066790>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek multiplikatsion filmlarini televideniya va reklama vositalari orqali targ'ibot (reklama) qilish va kichik tomoshabinlarning hayotiga olib kirishdagi muammolar keltirilgan va bu muammolarning yechimini topish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: multiplikatsiya, kinematografiya, milliy obraz

O'zbekistonda multiplikatsiya san'ati XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'la boshladi. Markaziy Osiyo respublikalari orasida O'zbekiston, birinchi bo'lib animatsion filmlar yaratish yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda multiplikatsiya san'ati boshqa san'atlar kabi rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2004 yil 16 martda qabul qilingan "Kinematografiya sohasini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmon va Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 17 martda qabul qilingan "O'zbekkino" milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori multijodkorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.[1]

Ma'lumki, bugungi kunda multiplikatsiya san'ati bolajonlar hayotida alohida o'rin egallaydi. Multiplikatsiya san'ati yoshlarning ruhiy hamda ma'naviy olamini rivojlanishida alohida o'rin egallab kelmoqda. O'zbekistonda bugungi kunga qadar 240 dan ortiq multiplikatsion filmlar yaratilgan. Ushbu filmlar orasida xalqaro va respublika miqyosida yuqori natijalarni qo'lga kiritgan filmlarimiz bilan faxrlansak arziydi. Ularni reklama qilish, tanitish va shu filmdagi bosh qahramon obrazini (milliy obraz) yosh tomoshabin hayotiga olib kirish dolzarb masala qilib belgilangan.



"Sehrli sandiq" (1966).

Ssenariy muallifi: D.Salimov, Yu.Petrov, rejissor: D.Salimov, rassom: Yu.Petrov,

operator: I.Gavrilenko, bastakor: R.Vildanov



“Alpomish” (1999)

***Ssenariy muallifi: N.Toʻlaxoʻjayev, rejissor: N.Toʻlaxoʻjayev, rassom: B.Ismoilov,
bastakor: F.Yanov-Yanovskiy, operator: M.Abzalova***



“Quyosh yurti pahlavoni” (2017)

Rejissor: N.Toʻlaxoʻjayev, rassom: M.Mahmudov, animator: D.Vlasov

Jahon multfilmlari haqida gapiradigan boʻlsak, ular filmlarini tomoshabinga taqdim etishdan oldin albatta reklama yaʼni targʻibot-tashviqot ishlarini yahshi olib borishadi. Toʻgʻri, chet el multfilmlarini yomon deb aytolmaymiz. Chunki ularning ham bosh gʻoyasi yovuzlik ustidan gʻalaba qozonishga qaratilgan va mahorat bilan ishlangan. Ammo ularning ishlanmalarida millatimiz ruhiyatiga, madaniyatimizga zid boʻlgan syujetlar ham uchrab turadi. Shuning uchun biz farzandlarimizning hayotiga oʻzimizning milliyligimiz asnosida yaratilgan multfilmlarimizni olib kirishimiz va shu asosida ularni tarbiyalashimiz zarur. Ayniqsa hozirgi texnika asri va mafkuraviy kurashlar asrida. Buning uchun biz har bir yaratilayotgan multfilmlarimizni televideniya hamda afishalar orqali eʼlon qilishimiz lozim, chunki bu yaratilayotgan filmlarni targʻib qilishga va tanitishga yordam beradigan eng maqʻbul yoʻl hisoblanadi. Televideniya bilan hamkorlik esa eng muhim vazifalardan biridir.

Bizda bir qancha multfilmlar yaratilmoqda, lekin ularni tanitishda (reklama qilishda) biroz oqsoqlik kuzatilmoqda. Chunki studiyada targʻibot-tashviqot ishlari bilan shugʻullanuvchi hodimning yoʻqligi va televideniya bilan hamkorlikda ish olib borilmayotgani sabab boʻlmoqda. Yaratilgan multfilmlarning qahramonlarini nafaqat televideniya orqali,

balki ularni bolalarning real hayotga olib kiradigan darajada reklamalarda yoritish hamda qahramonlarning obrazlarini tanitish kerak.

Ohirgi uch to'rt yillardan buyon yaratilayotgan multfilmlarning premyerasi o'tkazilsada ammo shu vaqtgacha televideniya orqali reklama qilinmaydi. Bugungi kungacha hatto premyera ham qilinmagan. O'zbekkino buyurtmasiga asosan multfilmlar yaratiladi shu bilan birga kinolar ham. Bilamizki, har bir yaratilgan kinolarning afishalari qo'yiladi, televideniya orqali reklama qilinadi, premyeralari o'tkaziladi va ushbu filmlarning disklar to'plami yaratilib sotuvga chiqariladi, ammo negadir multfilmlarning afishalari ishlab chiqilmaydi, reklama qilinmaydi, ushbu multfilmlarning disk to'plamlari ham ishlab chiqilmaydi va sotuvlarga qo'yilmaydi. Panorama kinoteatrining kichik zallarida multfilmning premyerasi o'tkazilsa ham ammo tashqi tomonidagi reklama shitlari orqali afishalari qo'yilmaydi.

Bugungi kunga kelib Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2017 yil 7 avgustdagi "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq multiplikatsion filmlar yaratishni 2018 yilda 15 taga, 2022 yildan boshlab esa 50 tagacha multfilmlar ishlab chiqarilishi qarorda ko'rsatilgan. Lekin bugunga kelib O'zbek multiplikatsion studiyasida, bundan tashqari xususiy multstudiyalarda yaratilayotgan filmlar deyarli reklama qilinmaydi.[2]

Muammoning yechimi. Multiplikatsion studiyalarda targ'ibod-tashviqot ishlari bilan shug'ullanuvchi shtat ochilishi, yangi yaratilgan multfilmlarni to'g'ridan to'g'ri televideniya yetkazuvchi bo'lib (adel) bo'lishi, multfilm qaysi studiya orqali yaratilganligini bilish uchun filmning tepa qismida studiya logotipining aks ettirilishi (har bir studiyaning o'z logotipi mavjud), eng yaxshi chiqqan multfilmlarni televideniya orqali, ayniqsa bolajon kanali orqali reklama qilish, multto'plam disklarini yaratish va sotuvga olib chiqish kerak, bundan tashqari bolajonlarning maktab sumkalarida, o'quv qurollarida multqahramonlarning obrazlari aks ettirilishi kerak. Zamonaviy reklama - bu rivojlanishning eng muhim omili hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni keltirish joizki, har qanday maxsulot yoki korxona, firma va tashkilot bo'lsin o'zini tanitish uchun kuchli vosita yani reklamadan yuqori darajada foydalanishi kerak. Bizning o'zbek multiplikatsiyamiz ham shunday reklamaga muhtojdir. Buning uchun o'zbek multiplikatsion filmlarimizni televideniya orqali reklama qilibgina qolmay, mazkur film afishasini ishlab chiqish hamda shu film bosh qahramon obrazini tijoratga olib kirish kerak ya'ni ularning o'yinchoqlarini yaratish, o'zbek multfilm qahramonlari obrazi tasvirlangan sumkalar ishlab chiqarish va hokazolarda, bolajonlarning rangli qog'oz, rasm daftarlari muqovalarida milliy qahramon obrazlarini aks ettirish lozim. Shu tariqa biz bu qahramonlarni bolajonlarimiz hayotiga olib kira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Xalq so'zi" gazetasining 2017 yil 8 avgustdagi 155 (6849)-soni. 2017.
2. N.T. Haydarova. O'zbekiston animatsion filmlari. T.: Turon Iqbol, 2019.
3. KASIMOV, O., & MIGUEL, A. A. A. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития", (10), 24-31.
4. Саипова, Д. (2021). Lighting design and modern trends in the organization of museum exhibitions. *Общество и инновации*, 2(11/S), 7-15.